



Tashkent State University of Economics

JOURNAL OF INTERNATIONAL FINANCE AND ACCOUNTING

ISSN
2181-1016



HUDUDLARDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI VA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

University of Business and Science

"Moliya" kafedrasi mudiri, PhD. Dotsent

e-mail: ikromk@mail.ru

ORCID: 0009-0007-3775-039X

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING MECHANISMS OF INVESTMENT ACTIVITY IN REGIONS AND FORMING A SUPPORT STRATEGY

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

University of Business and Science

Head of the Department of Finance, PhD, Associate Professor

E-mail: ikromk@mail.ru

ORCID: 0009-0007-3775-039X

Annotatsiya: Mazkur maqolada hududlarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari va ularni qo'llab-quvvatlash strategiyasini shakllantirishning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Hududiy rivojlanish iqtisodiy o'sishning makoniy ifodasi sifatida qaralib, innovatsion faollikni oshirish, bandlikni ta'minlash va hududlararo tafovutlarni kamaytirishning muhim omili sifatida asoslangan. Xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirishda uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijasida hududiy investitsiya mexanizmini shakllantirishning kompleks tizimli modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, investitsiya mexanizmi, moliyaviy infratuzilma, davlat-xususiy sheriklik, sanoat klasterlari, investitsion servis.

Abstract: This article examines the theoretical foundations for developing mechanisms of investment activity in regions and forming a strategy for their support. Regional development is considered as a spatial expression of economic growth and

is substantiated as an important factor in increasing innovation activity, ensuring employment, and reducing interregional disparities. Based on the experience of foreign countries, the importance of long-term financing instruments in improving regional investment policy is revealed. As a result of the study, a comprehensive systemic model for forming a regional investment mechanism is proposed.

Keywords: regional development, investment mechanism, financial infrastructure, public-private partnership, industrial clusters, investment service.

Kirish

Hududiy rivojlanish iqtisodiy o'sishning makoniy ifodasi sifatida qaraladi. Mazkur jarayonda ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish darajasi, infratuzilmaviy ta'minot, mahalliy bozor sig'imi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati hamda institutsional muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Hududiy rivojlanish nazariyalarida iqtisodiy o'sishning makoniy jihatlari ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, iqtisodiy markazlar,

o'sish qutblari va hududiy nomutanosibliklar bilan izohlanadi [1].

Investitsiya faoliyati hududiy rivojlanishning faqat moliyaviy manbai emas, balki iqtisodiy tarkibni modernizatsiyalash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, bandlikni oshirish va hududlararo tafovutlarni kamaytirishning asosiy omili hisoblanadi. Investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati kapital jamg'arilishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va texnologik yangilanish jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir [2].

Hududlarda investitsiya faolligini oshirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki investitsiya oqimlarining hududlar kesimida notekis taqsimlanishi iqtisodiy o'sish sur'atlari, infratuzilma rivoji, mehnat bozori holati va tadbirkorlik faolligida sezilarli tafovutlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli hududiy investitsiya mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash, ularni qo'llab-quvvatlovchi institutsional, moliyaviy va tashkiliy vositalarni aniqlash hamda xorijiy tajriba asosida milliy iqtisodiyot sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi hududlarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari va qo'llab-quvvatlash strategiyasini shakllantirishning nazariy asoslarini tadqiq etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun investitsiya mexanizmining iqtisodiy mazmuni yoritiladi, hududiy investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi, xorijiy mamlakatlar tajribasi umumlashtiriladi hamda hududiy investitsiya mexanizmini shakllantirishning kompleks tizimli modeli taklif etiladi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, mantiqiy

tahlil, institutsional yondashuv va nazariy modellashtirish usullaridan foydalanildi. Hududiy investitsiya mexanizmlarining nazariy mazmunini ochib berishda investitsiya muhiti, davlat iqtisodiy mexanizmlari, moliyaviy infratuzilma, kredit bozori, sanoat va moliyaviy kapital o'zaro ta'siri hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat kabi omillar o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqildi [3].

Tadqiqotning axborot bazasini hududiy investitsiya siyosati, xorijiy mamlakatlarda investitsiyalarni jalb qilish amaliyoti, investitsion servis xizmatlari, sanoat klasterlari, maxsus iqtisodiy zonalar va uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar tashkil etdi. Xorijiy tajribani tahlil qilishda Polsha, Chexiya, Turkiya, Kanada, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy va Malayziya amaliyoti umumlashtirildi [4].

Tadqiqot metodologiyasida hududiy investitsiya mexanizmi alohida moliyaviy vositalar yig'indisi sifatida emas, balki investitsiya resurslarini jalb qilish, taqsimlash, moliyalashtirish, rag'batlantirish, monitoring qilish va baholash jarayonlarini o'zida mujassamlashtiruvchi kompleks iqtisodiy tizim sifatida talqin etildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, investitsiya mexanizmi iqtisodiy resurslarni jalb qilish, ularni ustuvor yo'nalishlarga taqsimlash, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, rag'batlantirish, nazorat qilish va baholash jarayonlarini o'z ichiga oluvchi kompleks iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, hududiy investitsiya mexanizmi alohida moliyaviy vositalar majmui emas, balki investitsiya muhiti, davlat iqtisodiy mexanizmlari, sanoat va moliyaviy kapital o'zaro ta'siri, kredit bozori, moliyaviy infratuzilma hamda hududiy ijtimoiy-

iqtisodiy salohiyatning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimidan iborat.

Investitsiya muhiti investor uchun iqtisodiy qaror qabul qilishga ta’sir etuvchi huquqiy, institutsional, moliyaviy, infratuzilmaviy, ijtimoiy va bozor omillari majmuasi sifatida baholanadi. Hududiy investitsiya muhiti qanchalik barqaror va qulay bo‘lsa, hududga jalb etiladigan investitsiya oqimlari hajmi, ularning tarmoq tarkibi va iqtisodiy samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu sababli hududlarda investitsiya faoliyatini rivojlantirishda soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, kafolatlar, davlat-xususiy sheriklik, investitsion servis xizmatlari, moliyaviy institutlar, kreditlash mexanizmlari va investitsion marketing vositalarining o‘zaro uyg‘unligi muhim hisoblanadi [5].

Hududiy investitsiya muhiti qanchalik barqaror va qulay bo‘lsa, hududga

jalb etiladigan investitsiya oqimlari hajmi, ularning tarmoq tarkibi va iqtisodiy samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu sababli hududlarda investitsiya faoliyatini rivojlantirishda soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, kafolatlar, davlat-xususiy sheriklik, investitsion servis xizmatlari, moliyaviy institutlar, kreditlash mexanizmlari va investitsion marketing vositalarining o‘zaro uyg‘unligi muhim hisoblanadi [6].

Xorijiy mamlakatlarning hududiy investitsiya siyosatini shakllantirish tajribalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalarni jalb qilishda ixtisoslashgan agentliklar, maxsus fondlar, sanoat klasterlari, maxsus iqtisodiy zonalar, uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlari, "bir darcha" tamoyili, hududiy brending va investitsion servis xizmatlari muhim o‘rin tutadi (1-jadval).

1-jadval

Hududiy investitsiya mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi¹


Mamlakat	Asosiy institut yoki mexanizm	Hududiy investitsiya siyosati uchun ahamiyati
Polsha	Investitsiya agentliklari, maxsus fondlar, institutsional qo‘llab-quvvatlash	Investitsion marketing, hududiy brending va investorlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish
Chexiya	CzechInvest agentligi, klaster yondashuvi	Sanoat, ilm-fan va biznes hamkorligini kuchaytirish
Turkiya	Invest in Turkiya, tabaqalashtirilgan rag‘batlantirish tizimi	Hududlar rivojlanish darajasiga qarab differensial investitsiya siyosatini qo‘llash
Kanada	Federal va provinsial qo‘llab-quvvatlash dasturlari	Grant, subsidiya, kafolat va investitsion servis xizmatlarini kengaytirish
Germaniya	Mintaqaviy rivojlanish agentliklari, KfW moliyalashtirish instrumentlari	Hududiy infratuzilma, innovatsion loyihalar va kichik biznesni uzoq muddatli moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash
Janubiy Koreya	Maxsus iqtisodiy zonalar, sanoat klasterlari, texnoparklar	Yuqori texnologiyali sanoat va eksportga yo‘naltirilgan hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish
Xitoy	Maxsus iqtisodiy zonalar, industrial parklar, mahalliy investitsiya platformalari	Investitsiya oqimlarini sanoat zonalarini orqali konsentratsiyalash va eksport salohiyatini oshirish

¹ Muallif tomonidan xorijiy mamlakatlar tajribasini umumlashtirish asosida tuzilgan.

Polsha tajribasida investitsiya loyihalarini maxsus fondlar orqali moliyalashtirish, mintaqaviy darajada institutsional qo'llab-quvvatlash va investitsion marketing mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Chexiya Respublikasida CzechInvest agentligi faoliyati, klaster yondashuvi hamda biznes va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasidagi hamkorlik investitsiyalarni jalb etishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Turkiya tajribasi investitsiyalarni rag'batlantirishning moslashuvchan tizimi, hududlarni rivojlantirishga tabaqalashtirilgan yondashuv va innovatsion yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash bilan ajralib turadi.

Kanadada investitsiyaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash dasturlari umumdavlat va provinsial darajada shakllantirilib, grantlar, subsidiyalar, kredit majburiyatlarini kafolatlash, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va biznesni rivojlantirish dasturlari orqali amalga

oshiriladi. Germaniya tajribasida mintaqaviy rivojlanish agentliklari, sanoat klasterlari va KfW kabi moliyaviy institutlar orqali uzoq muddatli moliyalashtirish hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ustuvor ahamiyatga ega. Janubiy Koreya tajribasida sanoat klasterlari, texnoparklar, maxsus iqtisodiy zonalar va eksportga yo'naltirilgan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish hududiy investitsion faolligni oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Xitoyda investitsiya oqimlari maxsus iqtisodiy zonalar, industrial parklar va tayyor infratuzilmaga ega sanoat hududlari orqali konsentratsiyalanadi. Malayziya tajribasida esa MIDA agentligi, "bir darcha" tamoyili, investitsion servis xizmatlari va yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari investorlar bilan ishlash tizimini soddalashtirishga xizmat qiladi.



1-rasm. Hududiy investitsiya mexanizmini shakllantirishning kompleks tizimli modeli ²

² Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib muallaf ishlanmasi

Tadqiqotda xorijiy tajriba va nazariy yondashuvlarni umumlashtirish asosida hududiy investitsiya mexanizmini shakllantirishning kompleks tizimli modeli taklif etildi. Mazkur modelda investitsiya muhiti, davlat iqtisodiy mexanizmlari, sanoat va moliyaviy kapital o'zaro ta'siri, kredit bozori, moliyaviy infratuzilma va hududiy salohiyat investitsiya mexanizmini shakllantiruvchi bazaviy omillar sifatida qaraldi. Model hududlarda investitsiya resurslarini safarbar etish, ularni ustuvor yo'nalishlarga taqsimlash, moliyalashtirish, qo'llab-quvvatlash, monitoring qilish va baholash jarayonlarini yagona tizim sifatida talqin etish imkonini beradi (1-rasm).

Modelga ko'ra, hududiy investitsiya muhiti, davlat iqtisodiy mexanizmlari, sanoat va moliyaviy kapital o'zaro ta'siri, moliyaviy infratuzilma, kredit bozori va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat investitsiya mexanizmini shakllantiruvchi bazaviy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu omillar investitsiya resurslarini safarbar etish, ularni ustuvor tarmoqlar va hududlarga yo'naltirish, moliyalashtirish hamda investitsiya jarayonlarini monitoring qilish imkonini beradi.

Modelda baholash va boshqaruv vositalari sifatida integral baholash, GIS-klasterlash, ekonometrik modellashtirish, monitoring va prognozlash usullari ko'rsatilgan. Mazkur vositalar hududlarning investitsion faolligini baholash, hududlararo tafovutlarni aniqlash va investitsiya siyosatini differensial yondashuv asosida shakllantirishda metodologik asos sifatida qo'llanilishi mumkin [7].

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududiy investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishda xorijiy tajribani bevosita ko'chirish emas, balki uni milliy iqtisodiyotning institutsional

tuzilmasi, hududiy salohiyati, infratuzilma holati, moliyaviy institutlar rivojlanish darajasi va mahalliy bozor xususiyatlariga moslashtirish zarur.

Xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston hududlarida investitsiya siyosatini rivojlantirishning bir nechta ustuvor yo'nalishlarini ajratish mumkin. Birinchidan, hududiy investitsiya markazlari va investorlar bilan ishlashga ixtisoslashgan servis xizmatlarini kengaytirish lozim. Ikkinchidan, sanoat zonalari, kichik sanoat zonalari va klasterlar faoliyatini hududiy ixtisoslashuv asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlari, kafolat fondlari, imtiyozli kreditlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini hududiy loyihalar bilan bog'lash zarur. To'rtinchidan, investitsion marketing, hududiy brending va "bir darcha" tamoyili orqali investorlar uchun ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish hududiy investitsion jozibadorlikni oshiradi.

Hududiy investitsiya mexanizmining samaradorligi faqat investitsiya hajmining o'sishi bilan emas, balki uning tarmoq tarkibi, hududlar kesimidagi taqsimoti, yangi ish o'rinlari yaratishdagi hissasi, innovatsion faoliyatga ta'siri, eksport salohiyatini oshirishi va mahalliy iqtisodiyotda multiplikativ samaradorlik hosil qilishi bilan baholanishi lozim [8]. Shu sababli investitsiya siyosatini shakllantirishda integral baholash, GIS-klasterlash, ekonometrik modellashtirish, monitoring va prognozlash usullaridan foydalanish ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Xulosa

Hududiy investitsiya mexanizmi alohida moliyaviy vositalar yig'indisi sifatida emas, balki investitsiya muhiti, davlat qo'llab-quvvatlashi, sanoat va moliyaviy kapital o'zaro ta'siri, moliyaviy

infratuzilma, kredit bozori va hududiy salohiyatning o'zaro uyg'unlashgan kompleks tizimi sifatida talqin etilishi lozim.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, hududlarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

1. Hududiy investitsiya muhitini yaxshilash va investorlar uchun institutsional barqarorlikni ta'minlash;
2. Investitsion servis xizmatlari va "bir darcha" tamoyili asosida ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish;
3. Sanoat zonalari, klasterlar va maxsus iqtisodiy hududlar faoliyatini hududiy ixtisoslashuv asosida rivojlantirish;

4. Uzoq muddatli moliyalashtirish, kafolat, subsidiya va imtiyozli kredit instrumentlarini kengaytirish;

5. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan hududiy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda samarali foydalanish;

6. Investitsiya siyosatini integral baholash, GIS-klasterlash, ekonometrik modellashtirish va prognozlash asosida differensial yondashuv bilan shakllantirish.

Shunday qilib, taklif etilgan nazariy-metodologik yondashuv hududlarning investitsion faolligini baholash, hududlararo tafovutlarni aniqlash, investitsiya resurslarini ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish va hududiy investitsiya siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Perroux F. Economic Space: Theory and Applications // Quarterly Journal of Economics. 1950. Vol. 64. No. 1. P. 89–104; Myrdal G. Economic Theory and Underdeveloped Regions. London: Duckworth, 1957.
2. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan, 1936; Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // Quarterly Journal of Economics. 1956. Vol. 70. No. 1. P. 65–94.
3. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. New York: George Braziller, 1968.
4. UNCTAD. World Investment Report. Geneva: United Nations; OECD. Regional Development Policy and Investment Promotion: International Practices. OECD Publishing.
5. World Bank. World Development Report 2005: A Better Investment Climate for Everyone. Washington, D.C.: World Bank, 2005.
6. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
7. OECD. Regions and Innovation Policy. Paris: OECD Publishing, 2011.
8. Hirschman A.O. The Strategy of Economic Development. New Haven: Yale University Press, 1958